

## “TIL BILGAN-EL BILADI” NAQLI MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING SHIORIDIR

**MURODXONOV MUHAMMADNUR***O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi,**Yurisprudensiya(Islom huquqi), 2-bosqich talabasi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning asosiy va mashhur maqolalaridan biri “Munozara” maqolasi haqida trahlil qilinadi. Behbudi shu darvni o‘zidayoq chet tillarini o‘rganishdagi oqsoqlikni bartaraf etishini ko‘rsatib berdi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Munozara” maqolasi o‘sha davrda ham hozirgi kunda ham ko‘plab bahs-munozaralarga sabab bolgan va hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan maqolalardan biridir. “Munozara” maqolasida buxoriylar uchun “yangi usul” mакtablarining foydaliligi, bunday maktablarda yoshlarni o‘qitish lozimligi ta’kidlangan. Bu maqola farangiy afandi va mudarris Buxoriy janoblari o‘rtasidagi bahs va suhbat asosida vujudga kelgan. “Ikki til emas, to‘rt til” kabi muhim shiorni ommalashtirish orqali xalqni har tomonlama zamon uchun yetuk shaxs bo‘lishda munosib hissa qo’shgan.

**Kalit so‘zlar:** Munozara, “yangi-usul” maktabi, buxoriy, komil inson, til, mutafakkir.

### **Пословица МАХМУДХОДЖИ БЕХБУДИ «ЗНАЕТ ЯЗЫК – ЗНАЕТ ЧЕЛОВЕК».**

**Аннотация:** В данной статье будет проанализирована одна из главных и известных статей Махмудходжи Бехбуди «Мунозара». Статья Махмудходжи Бехбуди «Противоречие» — одна из статей, вызвавшая много споров тогда и сейчас, и не потерявшая своего значения и сейчас. В статье «Мунозара» подчеркивается полезность школ «нового метода» для бухарцев и необходимость воспитания молодежи в таких школах. Эта статья была создана на основе дискуссии и разговора между г-ном Фарангি Эффенди и г-ном Мударрисом Бухари. Популяризируя такой важный лозунг, как «Не два языка, четыре языка», он внес значительный вклад в формирование зрелой для времени личности во всех аспектах.

**Ключевые слова:** Дебаты, школа «Нового метода», Бухари, совершенный человек, язык, мыслитель.

### **МАHMUDXOJA BEHBUDI'S PROVERB "A LANGUAGE KNOWS – A MAN KNOWS"**

**Abstract:** In this article, one of the main and famous articles of Mahmudhoja Behbudi, "Munozara", will be analyzed. Mahmudhoja Behbudi's article "Controversy" is one of the articles that caused a lot of controversy then and now, and has not lost its importance even now. The article "Munozara" emphasizes the usefulness of "new method" schools for Bukharians and the need to educate young people in such schools. This article was created based on the discussion and conversation between Mr. Farangi Effendi and Mr. Mudarris Bukhari. By popularizing such an important slogan as "Not two languages, four languages", he made a significant contribution to making the people a mature person for the times in all aspects.

**Key words:** Debate, "New Method" school, Bukhari, perfect person, language, thinker.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Munozara” maqolasi o‘scha davrda ham hozirgi kunda ham ko’plab bahs-munozaralarga sabab bolgan va hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan maqolalardan biridir. “Munozara” maqolasida buxoriylar uchun “yangi usul” maktablarining foydaliligi, bunday maktablarda yoshlarni o‘qitish lozimligi ta’kidlangan. Bu maqola farangiy afandi va mudarris Buxoriy janoblari o’rtasidagi bahs va suhbat asosida vujudga kelgan. Haqiqatdan ham, buxoriylar mana shunday maktablarda o‘qib, ta’lim-tarbiya olsalar kelgusida ulardan bilimli, aqli, har tomonlanma mukammal bo‘lgan “komil insonlar” yetishib chiqardi. Buxoriylar yuqori cho qqilarni zabit etib, balki “Munozara” asariga rahmatlar aytib, bu asarni xotirasida saqlar, deb aytildi maqolada. Haqiqatdan ham, Buxoriylar ajdodlaridan ne-ne buyuk mutafakkirlar yetishib chiqqani va Behbudi esa buni asos sifatidanko‘rsatish orqali, millatni ruhini ko‘tarmoqchi bo‘ladi. “Munozara” maqolasi ma’naviyatimizni nobud bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaydigan asarlardan biridir. Har bir millatning ma’naviyati yuksak bo‘lsa, bu millat hech qachon zavolga yuz tutmaydi. Bu maqola buxoriylarning ruschani o‘rganishlari uchun vaziyat taqozosi sifatida vujudga kelgan. O’sha davida Buxoro Rossiya imperiyasi tarkibidagi davlat edi. Shuning uchun ham rus tilidagi adabiyotlar, go’llanmalar bilan tanishish uchun albatta rus tilini bilish etilardi. Rus tilini o‘rganish har bir buxorolik uchun foydali va zarur edi. borilgan. O’sha davrda Buxorodagi barcha sohalardagi ishlar ham rus tilida olib borilganligi mazkur maqolada aytib o‘tilgan. Pochta, telegraf, temiryo‘I, bank, savdo- sotiq, tijorat, shifoxona, ta’lim, davlat ishlari, qishloq xo‘jaligi ishlari barchasi rus tilida olib borilgan. Buxoriylar orasida rus tilini biladiganlar bo‘limganligi uchun tarjimonlar kavkaz va turkistonliklardan bo‘lganligi maqolada ham ta’kidlangan. Buxoroga juda ham zarur ekanligini aytib o’tadi. Shu o‘rinda, Samargand, Turkistonga ham borib o‘qish kerakligini ta’kidlab o’tadi. Buxorodan Samarqandga o‘g‘ri, qimorboz, gado borsa hech kim biror nima deyishmaydi, ammo o‘qish uchun borsa garshilik qilingan. Behbudiylar va bir qator jadidlar Buxoro hukmron doiralariga rus tilini o‘qitishga, yoshlarni, xalqni

ma‘naviyatli qilish uchun o‘qitishga ruxsat berishlarini so‘raganlar. “Munozara” maqolasida aytib o‘tilgan. “Munozara” maqolasi hozirgi kun bilan ham juda bog‘liq. Maqoladagi dolzARB mavzuni hozirgi kun bilan bog‘laydigan bo‘lsam, hozirgi kunda ham jamiyatimizda xorijiy tillarga bo‘lgan ehtiyoj kundan-kunga ortib bormoqda. Xorijiy tillarni yaxshi o‘zlashtirib yetarli bilimlarga ega bo‘lgan yoshlar ma’lum qoidalarga asoslanib xorijiy tillar bo‘yicha sertifikatlarni qo‘lga kiritmoqdalar va xorijiy davlatlarga borib o‘z bilim, malakalarini oshirib qaytmoqdalar. Xorijiy davlatlardagi yoshlar u davlatlarning yutuqlarini o‘rganib, texnika, texnologiya sohasidagi ishlarini jamiyatimiz rivojlanishida ham qo‘llayaptilar. Bu tajribalar ko‘p sohalarimizga ijoby ta’sir ko rsatmoqda. Bu o‘rinda men bir maqolni ishlatishni o‘rinli bilaman. Xalqimiz orasida bejizga “Til bilgan-el biladi” maqoli yuzaga kelmagan [1:3]. O‘z davrining taniqli ziyolilaridan bo‘lgan Sayidahmad Vasliy bilan tanishgandan (1900 yili) keyin bu bilimlarni mukammallashtirishga imkoniyat tug‘ildi. Vasliy unga arab tili qoidalarni o‘rgatibgina qolmay, balki she’riyatga bo‘lgan muhabbatini ham kuchaytirdi, shu bilan birga, uni o‘z davrining ma’rifatparvarlari davrasiga olib kirdi. Hoji Muin 1901 yili eski maktabda muallimlik faoliyatini boshlaydi. Bu sohadagi muayyan tajribalar natijasida va, albatta, Abduqodir Shakuriyning maktabi ta’sirida 1903 yili Xo‘ja Nisbatdor mahallasida o‘zi yangi usuldagagi maktab ochadi. Xuddi ana shu yili Vasliyning uyida Mahmudxo‘ja Behbudiy bilan tanishuvi uning hayotida yangi davrni boshlab berdi. Ayniqsa, Behbudiyning «Muxtasari jug‘rofiyai umumiy» nomli asari Hoji Muinda juda katta taassurot qoldiradi. Keyinchalik bir maqolasida bu haqda shunday xotirlaydi: «Shuni ham unutmaymanki, mazkur jug‘rofiya kitobining «Tatbiqoti diniya» faslinda «Ba’zi eski xurofot va isroiliyat so‘zlari bizning tafsir kitoblarimizgacha kirib ketgan» mazmunindaga jumlalar o‘shal vaktda manim fikrimda zo‘r o‘zgarishlar yasadi[2:34]. Ya’ni, o‘shal jumla meni birinchi dafa fikriy inqilobg‘a uchratdi. Men o‘shal qundan e’tiboran har bir eski va yangi kitoblarni diqqat bilan, muhokama ilan o‘quyturg‘on bo‘ldim. Mana shuning uchun men ayta olamankim, mening tavsi‘i ma’lumotimga turk-totor matbuoti sabab bo‘lg‘onidek, meni birinchi marta fikriy inqilobg‘a uchratgan ham Behbudiy hazratlarining mazkur bir jumla so‘zidir. Men mazkur tarihan e’tiboran Behbudiy afandig‘a chin ko‘ngil ila muxlis bo‘ldig‘imdek, o‘shal vaqtidan boshlab mavqeい kelganda har yerda oni mudofaa etaturg‘on bo‘ldim». Hoji Muin shu tariqa Behbudiyni o‘ziga ustoz deb bildi va uning haqiqiy izdoshiga aylandi. Turk-tatar matbuoti va ada-biyotini muntazam o‘qib borishi hamda Behbudiy boshchiligidagi Samarqand ma’rifatparvarlari ta’sirida taraqqiy parvar inson bo‘lib shakllangan Hoji Muin o‘z zamondoshlari orasida, eng avvalo, usuli jadid maktabining muallimi sifatida tanildi. Boshqa jadid muallimlari kabi Hoji Muin ham yangi usuldagagi maktabini o‘z hisobidan ochgan. Behbudiy, Shakuriy, Ajziylarning maktabdorlik faoliyati Hoji Muinga katta saboq vazifasini o‘tagan. Chunki o‘sha davrda o‘z hisobidan maktab ochish, undan moddiy foyda ko‘rish uchun qilinadigan

ish emas edi. Uning zamondoshlari bilan suhbatda bo‘lgan adabiyotshunos Rahim Muqimovning yozishicha, «Hoji Muin mакtabda bolalarni savodxon qilish uchun sarflanadigan mablag‘ni xalqdan yig‘magan, balki o‘zining Devoli ko‘ndalang qishlog‘idagi bog‘chasida yetishtirgan shirin-shakar mevalarni bozorga chiqarib sotish evaziga to‘plagan. Maktabdorlikdan daromad olishni sira o‘ylamagan» [3:7]. Yangi maktab muallimlari bolalarga nafaqat ta’lim, balki tarbiya berishni ham o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ygan edilar. Hoji Muin mashhur ma’rifatparvar A. Shakuriyning iltimosi bilan bolalar uchun tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan bir qancha she’rlarni turkiydan forsiyga tarjima qiladi. Keyinchalik M. Behbudiy ko‘magida ularni «Guldastai adabiyot» nomi bilan to‘plam holida chop ettiradi. Bu to‘plamga u o‘z she’rlarini ham kiritgan. «Guldastai adabiyot» haqida S. imzo bilan yozgan muallif shunday fikr bildirgan:

«Hoji Muin bundan o‘n yillar ilgari, umumiy fikr qorong‘uligi zamonasida bir adabiyot kitobi yozgon. Ul vaqtarda bunday yangi kitoblarning xalq orasida tarqalib o‘qulmog‘i juda qiyin edi. Fikri uyg‘ona boshlag‘on yosh quvvatlarimiz o‘z tushuncha va hissiyotlarini tarqatmoq uchun o‘z xalqining ruhiga muvofiq turlik yo‘llar izlar edilar. Ish qiyin. Bir «bismillo»sizlik bilan kofir va mal'un bo‘lmoq juda qulay edi» [4:211].

### **MANBALAR/REFEREMCWS**

1. Rashidova, Xushnoza, Sulaymonov, J.B. MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING “MUNOZARA HAQIDA“ MAQOLASIDAGI IJTIMOIY VA FALSAFIY QARASHLAR // ORIENSS. 2023. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mahmudxo-ja-behbudiyning-munozara-haqida-maqolasidagi-ijtimoiy-va-falsafiy-qarashlar> (дата обращения: 20.04.2024).
2. R. Muqimov. Hoji Muin kim edi?// Muloqot. 1994. 5-6-son.
3. S. Yangi Gap. // Turkiston, 1923, 7 Fevral.
4. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. T.: Ma’naviyat, 1997 Mahmudxo‘ja Behbudiy. Qasdi safar. // Oyna. 1914, 34-son